






ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№1(18) 2025

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida
Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале *«Педагогическая акмеология»* являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal *"Pedagogical akmeology"* are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: “Sadriiddin Salim Buxoriy” MCHJ “Durdona” nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mas‘ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY‘ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O‘zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, O‘zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Yo‘ldosh G‘afurovich, yuridik fanlari nomzodi, dotsent

O‘rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Rahimov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari doktorii, dotsent

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Vohidov Shodmon Husenovich, tarix fanlari doktori, professor, Marmara universiteti (Turkiya)

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo‘taboyev Muhammadjon To‘ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sidiqova Dilora Shavkatovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Abdullayeva Feruza Nurillovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Saidqulova Firuza Farmonovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Temirov Farrux Umedovich, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

- 4 *Babayeva Shoir*a Boymurodovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva Mashhura Muzaffarovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor
Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rajabov To'xtasin Ibodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Toshtemirov Oybek Abidovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Axadov Ma'murjon Sharipovich, pedagogika fanlari doktori (DSc)
Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G'aniyevich, Siyosatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Jo'rayev Akmal Razzoqovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Shadiyeva Nigora Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Hayitov Hamza Axmadovich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Mustaqim Rashidovich, texnika fanlari nozodi, dotsent
Jamilov Yusuf Yunus o'g'li, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Uzoqov Asliddin Mexritdinovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Murtazoyev Azizbek Nusrat o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ergashev Jahongir Yunus o'g'li, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Murodov Sherzod Normonovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Po'lotova Yulduz Asadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Omonova Dildora Nekmurodovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Adizova Nigora Baxtiyorovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raupov Sohib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Baxtiyor Nazarboyevich Rizayev, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Umurov Zarif Latifboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sirojov Ochil Sirojovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Nuriddinov Axrorjon Bahodir o'g'li. Yosh yengil atletikachilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi	231
Atoeva Mehriniso Farhodovna. Kredit-modul tizimida integratsion yondashuvlarni takomillashtirishning psixologik asoslari.....	236
Ramazonova O'g'loy Xolmurodovna. An'anaviy xonandalik madaniyatining badiiy-estetik xususiyatlari	242
Aminov Akmal Shavkatovich. Mustaqil topshiriqlarni raqamli texnologiyalar asosida joriy etish	247
Maqsuda Maqsudovna Murodova. Raqamli ta'lim texnologilari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlanish	251
Aliyeva Nodira Mahkampo'latovna. O'zbekistonda talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirish aspektlari	257
Xodjiyeva Farog'at Oltiyevna, Islamova Moxichexra Bekmurzayevna. Innovatsion metodlar o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish va tanqidiy fikrlashning muhim omili sifatida.....	263
Жумабоева Мухлиса Норбой кизи. Семантическая характеристика лексико - семантической группы глаголов речи в русском и узбекском языках	272
PSIXOLOGIYA.....	276
Bafayev Muxiddin Muxammadovich. Talabalar tolerantligi shakllanishida ijtimoiy omillar ta'siri	276
Elov Ziyodullo Sattorovich. Suitsid – globallashtirish jarayonida shaxsdagi salbiy ijtimoiy psixologik holat sifatida	284
Mavlonov Doniyor Ergash o'g'li. Suzuvchilarda ichki nizolarni oldini olishga yo'naltirilgan psixologik treninglar samaradorligini baholash	291
Maxmudova Zulfiya Mexmonovna. Qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	296

Ramazonova O'g'ilo'yl Xolmurodovna,

Buxoro davlat universiteti

Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida katta o'qituvchisi

Email: o'x.ramazonova@buxdu.uz

<https://orcid.org/0000-0002-8535-6123>

AN'ANAVIY XONANDALIK MADANIYATINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada an'anaviy xonandalik madaniyatida mumtoz musiqa asarlari o'ziga xos badiiy xususiyatga ega ekanligi, Sharq musiqa merosiga oid ko'plab asarlar va tarixiy-badiiy manbalar yaratilganligi bayon etilgan. Shuningdek, an'anaviy xonandalik madaniyatining badiiy-estetik xususiyatlari, badiiy-estetik sifatlar an'anaviy xonandalik madaniyatining mazmunida mahorat shaklida namoyon bo'lishi izohlangan. An'anaviy xonandalik madaniyatining rivojlanishida estetik tafakkur va xusiyati ham muhim o'rin tutishi izohlangan.

Kalit so'zlar: An'anaviy xonandalik, musiqiy meros, badiiy-estetik xususiyat, kuy, ashula, maqom san'ati, faoliyat.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТРАДИЦИОННОЙ ПЕВЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация: В статье констатируется, что произведения классической музыки имеют уникальный художественный характер в культуре традиционного пения, что создано множество произведений и историко-художественных источников, связанных с музыкальным наследием Востока. Также поясняется, что художественно-эстетические особенности традиционной певческой культуры, художественно-эстетические качества проявляются в форме умений и содержании традиционной певческой культуры. Выяснено, что эстетическое мышление и характер играют важную роль в развитии традиционной певческой культуры.

Ключевые слова: Традиционное пение, музыкальное наследие, художественно-эстетический признак, мелодия, песня, статусное искусство, деятельность.

ARTISTIC AND AESTHETIC FEATURES OF TRADITIONAL SINGING CULTURE

Abstract: The article states that works of classical music have a unique artistic character in the culture of traditional singing, that many works and historical and artistic sources related to the musical heritage of the East have been created. It is also explained that the artistic and aesthetic features of traditional singing culture, artistic and aesthetic qualities are manifested in the form of skills and content of traditional singing culture. It was found that aesthetic thinking and character play an important role in the development of traditional singing culture.

Kirish. Musiqqa va xalq og'zaki ijodi asrlar osha o'zbek xalqining ma'naviy boyligi, ijod namunasi sifatida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qardiyatga aylangan madaniy merosimizni o'rganish sifatida tahli etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. San'at va ma'naviy madaniyat butun o'zbek xalqi madaniy merosi, o'zbek mumtoz musiqasi o'zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari uning mavzui va g'oyaviy mazmunida aks etadi. Milliy musiqa namunalari xalqchillik xususiyatlari, ularning hayotiyliigi va qaysi bir dunyoqarashni himoya qilishi bilan belgilanadi.

An'anaviy xonandalik madaniyatida mumtoz musiqa asarlari o'ziga xos badiiy xususiyatga ega bo'lib, har bir janr kuy-ohang tuzilishi va rivoji, shakli va ijro uslubi sifatida namoyon bo'ladi. An'anaviy xonandalik yuksak mahoratli badiiy tizimdir. Unda xalqning badiiy didi, voqelikka nisbatan xalqona estetik munosabat ifodalangan.

An'anaviy xonandalik madaniyati va uning o'ziga xos xususiyatlari "an'anaviy ashulalar", "o'zbek an'anaviy xonandalik ijrochiligi"ning janrlarida namoyon bo'lib, rivoji va ularning talaba-yoshlarda madaniyat sifatida shakllantirish jarayonida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan, maroq bilan kuylanib kelinayotgan ashula, yalla, katta ashulalar, doston, cholg'i kuylari va maqomlarni o'z ichiga olgan musiqa ilmining maxsus sohasidir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Xonandalik madaniyati an'analari nafaqat musiqiy ijrochilikni, balki xalqning ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi boy meros sifatida o'rganilishi lozim. Bu merosni asrab-avaylash, uni yosh avlodga yetkazish va amaliy hayotga tadbiiq etish jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Shu bois, an'anaviy xonandalikni o'rganish jarayonida bu sohaning tarixiy ildizlari, estetik ahamiyati va tarbiyaviy funksiyalari yanada chuqur tahlil etilishi zarur. Chunki, an'anaviy xonandalik madaniyati nafaqat san'atning yuksak namunalarini, balki milliy g'urur va ma'naviyatimizning yorqin ifodasi sifatida e'tirof etiladi. Uni o'rganish va rivojlantirish esa, kelgusi avlodlar ongiga o'tmishdan kuch bag'ishlab, ma'naviy uyg'unlik va madaniy merosni asrashga xizmat qiladi.

Talabalarda an'anaviy xonandalik madaniyatini rivojlantirish maqom qo'shiqlarini o'rganish, ijro etish, mazmunni anglashga yordam beradi. Bizga ma'lumki maqom qo'shiqlari Buxoro, Xorazim, Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari va har bir hududning o'ziga xos yo'li, usullari mavjuddir. Uning ildizi "Shashmaqom" bo'lib, "O'n ikki maqom" sifatida o'z o'tmishiga ega, hozirda Shashmaqom turkumi sifatida yashashda davom etmoqda.

IX-XIX asrlarda Sharq musiqa merosiga oid ko'plab asarlar va tarixiy-badiiy manbalar yaratilgan bo'lib, ular musiqa madaniyatining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. O'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasida ajralib turuvchi olimlardan biri Al-Farobiy yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-amaliy g'oyalarni ilgari surgan. Taniqli olim, faylasuf va musiqashunos Abdurahmon Jomiyning "Risolai dar ilmi musiqa" nomli kitobida esa kompozitsiya, lad va ritm nisbatlari haqida muhim fikrlar bayon qilingan. O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Alisher Navoiy ham musiqa san'ati bo'yicha keng va chuqur bilimga ega bo'lgan. Uning musiqaviy-estetik qarashlari "Sab'ai Sayyor", "Maxbub-ul qulub" va "Xamsa" kabi asarlarida yaqqol namoyon bo'lgan. Ushbu asarlar nafaqat adabiy, balki musiqiy-estetik tadqiqotlar uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. O'zining tasavvuf ta'limotidan ilhomlangan Qutbiddin Sheroziy va Abdurahmon Jomiy hazratlari maqom ilmiga oid maxsus risolalar yozib qoldirganlar, ularning asarlari maqom san'atining nazariy poydevorini mustahkamlagan.

XVI-XVII asrlarda yashab ijod qilgan musiqa olimlaridan Najmiddin Kavkabi va Darvishali Changiy maqom qo'shiqlari haqida risolalar yozgan. Kavkabi va Changiy risolalari maqomlarning rivojlanishiga oid muhim ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan. "O'n ikki maqom" nomi bilan tanilgan maqomlar tizimi, tarixiy kuy va ashulalar, katta qo'shiqlar, an'anaviy qo'shiqlarni o'z ichiga olib, bizgacha yetib kelgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligini boshqargan Muhammad Raximxon nafaqat hukmdor, balki shoir, bastakor, sozanda va hofiz sifatida ham tanilgan. Uning ijodida "Feruz" I, "Feruz" II, "Feruz" III kabi taxalluslar muhim o'rin tutadi. Hukmdor Xorazm maqomlarini asrash maqsadida maxsus farmon chiqarib, maqomlarni buzganlarni jazolashni qonuniy tasdiqlagan.

XVIII asrning yarimlarida Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida esa Toshkent-Farg'ona maqomlari shakllanib, Shashmaqom negizida ustoz sozanda va xonandalar tomonidan ijro etilgan. Bu davrda maqom san'ati yanada boyib, yangi ijro uslublari va musiqiy turlarni o'z ichiga olgan.

Shunday qilib, maqom san'ati Sharq musiqa merosining beqiyos yodgorligi sifatida o'zining boy tarixiy va madaniy ahamiyatini bugungi kunda ham saqlab qolmoqda.

Jadid ma'rifatparvarlaridan biri Abdurauf Fitratning 1927-yili chop etilgan "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli risolasi muqaddimasida: "O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi

so'nggi yillarda o'zbek tiliga, adabiyotiga va tarixiga oid anchagina ma'lumot to'plab, yaxshigina natijalar chiqarishga muvaffaq bo'lsa-da, o'zbek musiqamizga tegishli jiddiy tatabbu'otda bo'lina olmadi", deya e'tirof qilinadi.

Bundan bilishimiz mumkinki o'zbek musiqasining qadimiy shakli maqom deb nomlangan. Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli risolasida "maqom" atamasiga ta'rif bergan. Bizning eski kuylarimiz orasida "Rok", "Qatop-sorang" degan kuylar bor. "Rok" hindcha "Maqom" demakdir. "Sorang" esa, hind cholg'ularidan biridir.

XIX asr oxirlariga kelib, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Hamza kabi yetuk namoyandalar an'anaviy xonandalik maktablarini tashkil qilishga bosh bo'ldilar. XX asr boshli, 1918-yilda Toshkentda Turkiston Xalq Konservatoriyasining ochilishi, Buxoro, Samarqand va Farg'onada musiqa bilim yurtlarining tashkil etilishi, 1960-1961 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarida musiqa o'qituvchilarini tayyorlash yo'lga qo'yilgani bu yo'nalishdagi dastlabki qadamlar edi. Bugungi kunda esa musiqa va san'at ta'limi hamda ijrochilik sohasida katta tajriba shakllandi.

Natijalar va muhokama. Musiqa ilmini o'rganayotgan yoshlar madaniyatini shakllanishiga xizmat qiladi. An'anaviy xonandalik madaniyati badiiy-estetik xususiyatlarning asosi, uning zarur tarkibiy qismi musiqa ilmdan ajralib chiqqan. An'anaviy xonandalik madaniyati musiqit-badiiy faoliyat bo'lib, ijrochida estetika va badiiylik o'rtasidagi uyg'unlikni namoyon etmasdan qolmaydi. Xonandalikning estetik sifatida jamoaviy, ya'ni go'zal va xunuk, uyg'un va tartibsiz, yuksak va asosiy, obrazlarga xos bo'lgan umumiylik ko'rinsa, badiiy hodisa va jarayonlarni faqat san'at asarlarini yaratish, idrok etish, faoliyat yuritishda amalga oshiriladigan hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. An'anaviy xonandalik madaniyatining badiiy-estetik xususiyati, badiiy sifati ularda badiiy ijod elementlari mavjudligini ko'rsatadi. Xonandalikdagi yuqori kasbiy mahoratining mavjudligi estetik sifatlarni namoyon etadi. Badiiy-estetik sifatlarni an'anaviy xonandalik madaniyatining mazmunida mahorat shaklida namoyon bo'ladi.

Nazarimizda, an'anaviy xonandalik madaniyatini rivojlantirish, musiqiy madaniyatni shakllantirish badiiylikdan farqli o'laroq, estetik tabiatga, jamiyatga, insonga, uning faoliyatida, yaratilgan kuy-qo'shiqlarda, shu jumladan maqom san'atida namoyon bo'ladi.

An'anaviy xonandalik madaniyati, avvalo, musiqaning estetik qiymatini, uning nafaqat badiiy jihatlarini, balki insoniyatning ichki dunyosini va ruhiyatini ifodalashdagi rolini ham o'z ichiga oladi. Musiqa, ayniqsa maqom san'ati, xalqning tarixiy, madaniy va ruhiy holatini aks ettiruvchi kuchli vositadir. Bu san'at turi estetik tabiatini, avvalo, insonning ichki olamiga, uning hissiyotlari va his-tuyg'ularini ifodalashga qaratadi. Maqomlar, o'zining chuqur musiqiy va falsafiy mazmuni bilan, inson ruhiyatining eng nozik nuqtalarini anglatadi.

An'anaviy xonandalik madaniyati nafaqat musiqaning ovozli ifodalari orqali badiiy qimmatlarga ega, balki uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati ham muhimdir. Maqom san'ati, o'zining chuqur falsafasi va tarixiy an'alariga tayanib, milliy musiqaning nafaqat estetik, balki axloqiy va madaniy qadriyatlarini ham yuksaltiradi. Musiqa orqali jamiyatda o'zaro hurmat, ehtiros, hissiyotlar va fikrlar bir-biriga bog'lanadi, bu esa ijtimoiy aloqalar va kommunikatsiyaning yangi shakllarini yaratadi.

Maqom san'ati va xonandalik madaniyati, shuningdek, insonning ijtimoiy faoliyatida o'z aksini topadi. Har bir maqomning mazmuni va tuzilishi o'sha davr va jamiyatning ruhiy holatini, uning hayotiy qadriyatlari va madaniy muhitini aks ettiradi. Shu bilan birga, badiiylik va estetikada jamiyatning o'zgacha, yuqori ma'naviy nuqtalari namoyon bo'ladi, insonning ichki dunyosini anglash imkonini beradi.

Shunday qilib, an'anaviy xonandalik madaniyatini rivojlantirish, musiqiy madaniyatni shakllantirish nafaqat estetik jihatdan, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarni kuchaytirish, insonning ichki dunyosini chuqurlashtirish va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Maqom san'ati, o'ziga xos ovoz, ohang va mazmuni bilan bu jarayonning ajralmas qismi sifatida jamiyatni yuksaltirish va insonni ruhi orqali ko'tarishga imkon yaratadi. "Musiqa ilmida janr tushunchasi nafaqat musiqashunoslik ilmida, balki

adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, falsafa, tasavuf va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi. Aytish joizki janrda asarning tuzilishi, shakli, ijro holati, ijro sharoiti, ijrochilarning tavsifi, asar qanday holatda va qanday sharoitda kuylanishi, qanday cholg'u asboblari jo'r bo'lishi va hokaza bir qator o'ziga xos xususiyatlarga javob berishi lozim. Umumiy san'at qonuniyatini o'rganishda, musiqada janr va uslub muhim ahamiyat kasb etadi. Janrda musiqiy tilning asosiy elementlari mavjuddir. Musiqada janr deb uning bir turiga oid bo'lgan umumlashmasiga aytiladi. Janr so'zining yana bir o'ziga xos xossasi "ko'rinish" ma'nosini ham bildiradi. Musiqiy janrlar - bu musiqaning turlari, ko'rinishlari bo'lib, turli xildagi funksiyalarni bajaradi. Uslub tushunchasi musiqaning ma'lum tarixiy ijtimoiy sharoitida vujudga kelib, rivojlanishi bilan bog'liqdir. Har bir davrning o'ziga xos va mos shart-sharoitlari, muhiti, holatiga mos ravishda mavzulari, musiqasi, xonandalik aytimlari mavjud bo'lib, ularning bastakorlari asosan xalq, qolaversa, ijrochi bastakorlari tomonidan yaratiladi va faqat o'sha davrgagina mansub bo'ladi".

An'anaviy qo'shiqchilik madaniyatining badiiy-estetik xususiyatlari rang-barang va serqirrali mana shunday musiqa janrining ko'rinishi sanaladi. Ular tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadi.

An'anaviy xonandalik madaniyatini muhim jihat *individual* ishlashdir, bu improvizatsiyani o'z ichiga oladi. An'anaviy ijrochilar ko'pincha polifoniya yoki xor qo'shiqlari kabi o'ziga xos vokal texnikasi yordamida ijro etiladi. An'anaviy qo'shiqlardagi badiiy-estetik sifatlarni ijro jarayonidagi ko'rinishlariga nazar tashlar ekanmiz, *polifoniya* (lotincha: polyphonia poli... va fon) — ovoz (kuy)larning ifodaviy-badiiy o'zaro tengligiga asoslangan ko'p ovozlilik, *gomofoniya* — musiqada ko'p ovozlilik turi, gomofoniyada bir ovoz yetakchi bo'lib, boshqa ovozlarga unga bo'ysunadi, jo'r bo'ladi. Bu xususiyati bilan gomofoniya barcha ovozlarning teng huquqliligiga asoslanuvchi polifoniyadan farq qiladi. Mazkur sifatlari talabada xonandalik madaniyatiga xos xususiyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi.

An'anaviy maqom kompozitorlari ijodida keng ishlatilgan gomofoniya ovozlarning badiiy-ifodaviy nisbatlari (tengsizligi) og'zaki an'anadagi musiqa, jumladan o'zbek xalq musiqasiga xosdir jarayondir. Masalan, doyra yoki dutor jo'rligida qo'shiq aytish buning yaqol misolidir. Gomofoniya, avvalo, opera, oratoriya, kantata, jo'rli yakkaxon qo'shiqda va cholg'u musiqalari vujudga kelib, 17—19-asrlar G'arbiy Yevropa musiqasida gomofoniyaning keng tarqalishi garmoni vositalarining jadal rivoji bilan barobar bordi. 20-asr boshlarida gomofonik musiqa shakllari o'z rivojining ma'lum poyoniga yetdi. O'zbekiston kompozitorlari M. Burhonov, S. Yudakov, M. Bafoyevlar o'z ijodlarida gomofoniya xususiyatlaridan unumli foydalandilar.

An'anaviy xonandalik madaniyatining rivojlanishida estetik tafakkur va xusiyat ham muhim o'rin tutadi. An'anaviy ijroda ko'pincha marosim va madaniy kontekstlar bilan bog'liq faoliyatlar mavjud bo'lib, bu faoliyatlar musiqaning badiiy va estetik mazmunini kengaytiradi. An'anaviy xonandalik madaniyatining talabalar faoliyatida rivojlantirishda, estetik yondashuv nafaqat ijro uslublarini mukammallashtirish, balki talabaning o'zini tanib, ijro jarayonidagi mazmunni tez anglashiga yordam beradi. Bu xususiyat talabaning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, faoliyatidagi ijro uslublarini yanada chuqurroq tushunishga, yuksak ijro texnikasini o'zlashtirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, faoliyatdagi estetikaning mavjudligi talabaning o'z ustida uzluksiz ishlashiga, faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga, ijro uslublarini takomillashtirishga olib keladi. Bunday estetik yondashuv, shuningdek, vatanparvarlik, birodarlik, do'stlik, mehnatga munosabat va muhabbat kabi insoniy tuyg'ularni tarbiyalashi bilan ham ahamiyatlidir.

Xulosa. An'anaviy xonandalik madaniyati o'zining badiiy-estetik jihatlari, turfa yo'nalishlari va ijro maktablari orqali milliy san'atimizni boyitishda, yosh avlodga estetik tarbiya berishda muhim o'rin tutadi. Bu san'atni rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish esa milliy madaniyatimizni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

An'anaviy xonandalik madaniyatining badiiy-estetik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ovoz: Ovozning ohangi, temбри va ravshanligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Boy, jarangdor tovush his-tuyg'ularni uyg'otishi va tinglovchilar bilan bog'lanishi mumkin.

2. Ifoda: Qo'shiq aytishda his-tuyg'u muhim rol o'ynaydi. Hissiyotlarni dinamika, iboralar va artikulyatsiya orqali yetkazish qobiliyati estetik tajribani oshiradi.
 3. Texnika: Nafasni nazorat qilish, ovoz balandligi aniqligi va vibratsioni o'z ichiga olgan ovoz texnikasini egallash ijroning umumiy go'zalligiga hissa qo'shadi.
 4. Lirizm: Qo'shiq matnining o'zi chuqurlik va ma'no qo'shib, qo'shiqning hissiy rezonansini kuchaytira oladi.
 5. Musiqiylik: Ohang, garmoniya va ritmning o'zaro ta'siri qo'shiqchilik mavjud bo'lgan ramka yaratadi, uning estetik jozibadorligiga ta'sir qiladi.
 6. Kontekst: Qo'shiqning o'rni va madaniy muhiti ham uning estetikasini shakllantiradi. Turli janrlar va an'analar qo'shiqni qanday qabul qilishiga ta'sir qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega.
 7. Aloqa: Qo'shiqchi va tomoshabinlar o'rtasidagi munosabat tajribani ko'tarib, umumiy hissiy sayohatni yaratishi jarayonini nazarda tutadi.
- Umuman olganda, an'anaviy xonandalik estetikasi texnik mahorat, hissiy ifoda va kontekstual ahamiyatning ko'p qirrali aralashmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" G harfi -Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti - 2000-yil.
2. Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". – T.: "Fan" nashriyoti. 1993. 56-b.
3. Mirabdullaev M.M An'anaviy xonandalik –Toshkent: 2022. -204 b
4. Ramazonova O'.X An'anaviy xonandalik va hofizlik san'ati. Pedagogik mahorat. Maxsus son. 2021. 38-40-b.
5. Rasulov. O'An'anaviy xonandalikdan o'qitish metodikasi. –T.: 2007.
6. Rahimov O. O'zbek xalq xonandaligi: tarix va rivojlanish. Toshkent: O'zbekiston madaniyati, 2010.
7. Рўзиев Д. Муסיкий билимларни мантикий ўзлаштириш – муҳим педагогик ҳодиса "Педагогик маҳорат" журнали Бухоро 2007. 2-сон 54-57 бетлар